

“TALIM MUASSALARIDA MASALAHAT OLIB BORISH ISHLARI”

Qoraqalpoq Dvlat Unuversiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasи asistenti

Dauletova Go'zal Muratbaevna

[*guzalmuratbaevna@gmail.com*](mailto:guzalmuratbaevna@gmail.com)

Qoraqalpoq Dvlat Unuversiteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Kamalova Farangiz Hakimboy qizi

[*kamolovafarangiz728@gmail.com*](mailto:kamolovafarangiz728@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lif tizimi yoki ta'lif muassalarida psixologik maslahat berish yani o'quvchi, talaba, o'qituvchilarning psixologik muammolarini yechishga qaratilgan psixologik kansultatsiya va maslahatlar berish haqida qisqacha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Psixologik maslahat, individual, munosabat, idroki, diqqati, xotirasi, tafakkuri, tasavvuri, harakteri, temperamenti, qobiliyati, hissiyotlari, emotsiyalari.

Psixologik maslahat berishda individual munosabatda bo'lishning asosiy sharti bu, tarbiyachining o'z tarbiyalanuvchisining sezgisi, idroki, diqqati, xotirasi, tafakkuri, tasavvuri, harakteri, temperamenti, qobiliyati, hissiyotlari, emotsiyalari, irodasi va faoliyat motivatsiyasi haqida chuqur bilishidan iboratdir. Shu bilan birga o'quvchining ruhiy dunyosidan xabardor bo'la olishni, psixologik jihatdan to'g'ri kuzatishni tashkil qila olish va tabiiy eksperiment o'tkaza olishni bilishi lozim.

Hozirgi vaqtida psixologik maslahat berishning amaliyotida va bola tarbiyasi va psixik taraqqiyotning murakkablashtirilgan qator noto'g'ri fikrlari kuchaya borayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Ular orasida qator ijtimoiy-

iqtisodiy omillarning qarama-qarshi ta'sir ko'rsatishi sezilarli o'rinni egallaydi. Masalan: otaonaning ayniqsa, onalarning ishlab chiqarishdagi bandligi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, ko'pchilik bolalarning bolalar muassasida tarbiyalanishi ota-onalar psixologiyasiga ta'sir ko'rsatmoqda.[1.315]

Psixologik maslahat berish vazifalarini yechishda mashhur psixolog L.S.Vigotskiy maktabi psixologlarining ayrim umumiy fikrlaridan foydalanish mumkin. Shaxs kamolotida irsiyat va muhitning ta'sirini tan oladigan g'arb tadqiqotchilaridan farqli ravishda, sobiq sovet psixologiyasida bolaning psixik taraqqiyoti jarayoni tahlilida tarraqqiyot sharoitini, harakatga keltiruvchi kuchlarlar ham e'tiborga olinadi.

Psixik taraqqiyotning individual sharoitlari bolada insoniyat tajribasini o'zlashtirish jarayoni asosida vujudga keladi, insoniyat tajribalarini o'zlashtirish bolaning muloqoti, o'yini va o'qishidan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Individual maslahat uslubidagi psixologik tekshiruv mazmuni shuki, bola tarbiyasini aniqlash va unga yordam ko'rsatish dasturini tuzishdan iborat. Maslahat berish amaliyotida shartli variantni oldindan aytish berish haqida ham to'xtalib o'tish mumkin. Shartli variantni oldindan aytishni turli sharoitlarda amalga oshirganda esa, bola taraqqiyotining keyingi borishida mumkin bo'lgan varintlarni tushunamiz.[2.143]

Boshqacha aytganda, u yoki bu noqulay sharoitlar saqlanganda, bolani qanday ehtimolli taraqqiyot kutayotganligi aytib beriladi. Individual psixologik maslahat berish bu psixolog amaliy faoliyatining eng ma'suliyatli jihatlaridan biridir. Maslahatchining psixik taraqqiyot bo'yicha har bir bergen bahosi bolani keyingi taraqqiyotiga, o'qituvchilar va ota-onalarning bolaga nisbatan bo'ladigan ijobjiy munosabatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Individual maslahat quyidagilarni nazarda tutadi;

1. Ota-onalar bilan dastlabki suhbatda olingan ma'lumotni tahlil qilish hamda vrachlardan pedagoglardan olingan ma'lumotlarni ham e'tiborga olish;
2. Bolaning ilgari rivojlanish bosqichlari, oiladagi munosabat haqida, sog'ligi haqida ma'lumot olishi uchun ota-onalar bilan suhbat;

3. Boshqa mutaxassislardan ma'lumot yig'ish, sog'ligi xaqida ma'lumot, bolani mакtabda uyda boshqa hollarda kuzatish, psixologik metodlar bilan tekshiruvga muhim qo'shimcha sifatida bolaning faoliyatini (rasmlari, qiziqadigan narsalarini tahlil qilish kiradi).[3.437]

Bolani mакtabda, uyda boshqa hollarda kuzatish, psixolog olingan ma'lumotlar asosida bola rivojlanishining umumiy darajasiga baho berish bola qiyinchiliklari mohiyatini tavsiflashi, analiz qiyinchiliklardan kelib chiqqan omillarini aniqlashi va psixokorreksion dasturini ishlab chiqishi kerak. Maslahat berish amaliyotida juda ko'p metodlar bor. Psixolog oldida turgan vazifa birinchidan bola bilan yaxshi munosabat va o'zaro tushunishidan iborat. Muammoli vaziyatlarni shoshilmasdan, aniq hal qilish kerak. Savolni bir necha marta takrorlamaslik kerak. Test olinayotgan vaqtda bolaga o'rgatish, tanqid qilish, hatto maqtash ham mumkin emas, tanqid bolani chalg'itadi, dilini og'ritadi, ko'pincha bolani topshiriqqa bo'lgan qiziqishini pasaytiradi.

Psixologik muammolarni hal etishda shaxsdan test olishda yoki diagnostika qilish uchun tajriba o'tkazishda uning emosional holatiga, o'zini yaxshi his qilayotgan, charshash belgilari yo'q vaqtda, ortiqcha asabiylashish, qaysarlik yo'q vaqtda o'tkazish kerak. Yosh davrida bolani psixologik tekshirish muammosi asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi. Psixologik muammolarni hal etishda psixologga qiyin masalalarni hal qilish uchun diagnostika test bilan tekshiruvni amalga oshirish kerak. Diagnostik tekshiruv qoidalarini ko'rib chiqsak: Psixodiagnostikada bu masalaga katta ahamiyat beriladi, chunki tekshiruvchi harakatlarining natijasi, testni o'tkazish qoidalariga to'liq amal qilishga bog'liq. Ko'pchilik metodikalar yordamida bir necha qoidalar ishlab chiqilgan. Qo'llanmani va unga ajratilgan vaqtini o'zgartirish mumkin emas. Barcha tekshiriluvchiga bir xil oxang, bir xil aytishni talab qilinadi.[4.245]

Bolaning familyiasi, ismi, otasi xaqida ma'lumotlar, oiladagilar yoshi, shug'ullanadigan ishi, bola tug'ilganidan keyingi oila tarkibidagi o'zgarish. Bolani tug'ilguncha va tug'ilgandan keyingi rivojlanish sharoitidagi umumiyl ma'lumot. Tekshirilayotgan vaqtidagi bolaning og'irligi va boshdan kechirgan

kasalliklari psixonevrolog yoki boshqa mutaxassisda ro‘yxatda turishi, tug‘ilganidan boshlab uqlash va ovqatlanish xususiyatlari, kim tomonidan tarbiyalanganligi ikki yoshgacha kim qaragani, bolani o‘sish sharoitida to‘satdan o‘zgarishlar bo‘lish, ota-onaning tez-tez va o‘zoq vaqt birga bo‘lmasligi, bu sabablarning har biri bolaga ta’sir etishi, bog‘cha davrida o‘yindagi o‘rtoqlari, qanday o‘yin o‘ynagani, qanday she’r yodlashi, televizor ko‘rish kabi psixologik muammolarni hal etish psixologning vazifasidir.

Psixologik maslahat vazifalari chet ellarda yaxshi rivojlangan ota-onalar bolasi taqdiri bilan yoshlidan qiziqib e’tibori kuchlidir. Ular o‘sishi rivojlanishi davrlarida farzandidagi har bir o‘zgarishga ahamiyat berib, o‘z vaqtida psixologik ko‘rikdan o‘tib turishadi, o‘z vaqtida maslahatni olib muammoli vaziyatni tez hal qiladilar. Bizda psixologik xizmatlar endigina yo‘lga tushmoqda agar ota-onalar, psixologlar, vrachlar, tarbiyachi va pedagoglar, psixologik ishlarni ya’ni o‘z vaqtida bajarsalar, unda psixologik muammolar kam uchragan qancha bolalardagi kamchiliklar va kasalliklarning o‘z vaqtida oldi olinishi ehtimoldan holi emas.[5.246]

Psixologik maslahat berish amaliyotida normal taraqqiyot korreksiyasi anormal taraqqiyot korreksiyasidan farqlanadi. Normal taraqqiyotda tuzatishning mazmuniga ko‘ra quyidagi turlari ajratiladi: aqliy taraqqiyot korreksiyasi, shaxs taraqqiyoti korreksiyasi, salbiy holatlarning oldini olish korreksiyasi va boshqalar. Psixolog ishida korreksion vazifalarni yechish maqsadida psixologik yordamni tashkil etishga bog‘liq ravishda uning turini ko‘rsatish mumkin: maslahat-tavsiyalar berish, madaniy oqartuv ishlari-ota-onalar, tarbiyachilar, o‘qituvchilarga mo‘ljallangan bo’ladi.

Psixologik xizmat xodimlari barcha muammolarni hal qilishda bolani har tomonlama va garmonik rivojlanish vazifalariga va uning qishlariga tayanadidlar. Amaliyotchi psixolog o‘z faoliyatini pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin aloqada amalga oshiradilar. Psixologik xizmat o‘z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari bilan, bola tarbiyasida yordam ko‘rsatuvchi jamoachilik xodimlari bilan yaqin aloqada ish olib boradi. Barcha mutaxassislar bilan

munosabat tenglik asosida va fikrlarning bir-birini o'zaro to'ldirishi asosida quriladi.[6.216]

Umumiy o'rta ta'lif tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi-shaxsning har tomonlama garmonik kamoloti, to'laqonli psixologik taraqqiyotni ta'minlovchi qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir o'tkazish ob'ekti mакtabgacha yoshdagи bolalar, o'quvchilar, o'quvchilar, ota-onalar bo'lib hisoblanadi, ularni alohida yoki guruhiy shaklda tadqiq qilish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak so'nggi yillarda mamlakatimizda psixologiya sohasida olib borilayotgan islohotlar, yurtimizda psixologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shamoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbazarliklarning oldini olish chora –tadbirlari to'g'risida"gi 472- sonli qarorining 9-bandida "Xorijiy tajribadan kelib chiqib, oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga ijtimoiy psixologiya, yoshlar psixologiyasi, psixologik xizmat faoliyatini boshqarish, oilaviy konsultatsiya va kouching kabi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini kiritish" vazifasi belgilangan . Psixologiya institutining tashkil etilishi ham shular jumlasidandir. O'ylaymanki yaqin yillarda O'zbekistonda ham bu soha o'zining yuksak cho'qqisiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абрамова Г. С. Психологическое консультирование: теория и опыт. – М., 2000.
2. Бондаренко А. Ф. Психологическая помощь: теория и практика. – М., 2000.
3. Гулина М. Терапевтическая и консультативная психология.- СПб.,2001.
4. Eshmurodov O. E. SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MAINTAINING FAMILY-MARRIAGE RELATIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 803-807.

5. Эшмурадов О. Э. ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ШАХС
МОСЛАШУВЧАНЛИГИ ХУСУСИЯТИНИНГ ОИЛА
МУСТАҲКАМЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012>